

TEXNIK TA'MINOT BO'LINMALARI TARKIBIGA ZAMONAVIY UCHUVCHISIZ UCHISH APARATLARINI INTEGRASIYA QILISHDA TEXNIK RAZVEDKA OLIB BORISH VA MODDIY VOSITALAR BILAN UZLUKSIZ TA'MINLASH ALGORITMI

Sarimsakov Sh.M

*O'zbekiston Respublikasi HX va MU Serjantlar tayyorlash oliy maktabi moddiy-texnik ta'minot kafedrasi boshlig'i,
mustaqil izlanuvchi podpolkovnik*

Annotatsiya: Mazkur maqolamda texnik ta'minot bo'linmalari tarkibiga zamonaviy uchuvchisiz uchish aparatlarini integrasiya qilish asosida sifatli texnik razvedka olib borish va moddiy vositalar bilan uzluksiz ta'minlash imkonini beruvchi texnik ta'minot algoritmi to'g'risida ma'lumotlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: sifat, algoritm, UUA, texnik razvedka, model.

“...Bugungi tahlikali zamonda Qurolli Kuchlarimizda mavjud bo'lgan qurol-aslaha va jangovar harbiy texnikalarimizni harbiy sanoat kompleksini mutaxassislarini jalb qilgan holda jangovar qobiliyatini oshirishimiz shart”.

1906-yilda aeronavtika otryadlari tashkil etilganidan so'ng havo razvedka vositalari bilan artilleriya otishmalarini korrektirovka qilish rivojlana boshlandi.

Xuddi shu yili Mixaylovskiy artilleriya maktabining bitiruvchisi Pyotr Nesterov Vladivostokda aerostatdan artilleriya otishiga tuzatmalar kiritish qoidalarini ishlab chiqdi.

4 yildan so'ng u Gatchinaga ko'chib o'tdi va u erda aero navtika maktabida uchish bo'yicha o'quv dasturini o'zlashtirdi.

U havo razvedkasi yordamida artilleriya olovlariga tuzatmalar kiritish kashfiyotchisi va tashkilotchilaridan biri hisoblanadi. Ulug' Vatan urushi yillarida, Leningrad frontidagi jangda, diviziya artilleriyasining qo'mondoni, havodan suratga olish, artilleriya olovini korrektirovka qikish va otish natijalarini nazorat qilish uchun ikkita havo razvedka bo'linmalaridan bevosita foydalangan. Kuzatuv sharlari, korrektirovkalovchi aviatsiya bilan bir qatorda, kontrbatareya kurashida ajralmas razvedka vositasi bo'lgan.

Texnik ta'minot bo'linmalarining vazifalari va zamonaviy talablarga muvofiq quyidagi vazifalarni bajaradi:

Texnika va uskunalarning texnik holatini nazorat qilish, nosozliklarni aniqlash va bartaraf etish, moddiy vositalar (yoqilg'i, ehtiyot qismlar, texnik jihozlar) bilan ta'minlash, transport-logistika jarayonlarini muvofiqlashtirish,



texnik xavfsizlikni ta'minlashdan iboratdir.

Zamonaviy sharoitda ushbu vazifalarni bajarishda tezkorlik, anqlik va uzluksizlik asosiy talab sifatida namoyon bo'lib kelmoqda.

Uchuvchisiz uchish apparatlarini texnik ta'minot tizimiga integratsiya qilinsa texnik ta'minoti vazifalarini uzluksiz bajarishda quyidagi afzalliklarga ega bo'ladi:

Inson omilisiz masofaviy kuzatuv olib boorish, qiyin yetib boriladigan hududlarni nazorat qilish, real vaqt rejimida ma'lumot uzatish, ekspluatatsiya xarajatlarining nisbatan pastligi.

O'zbekiston sharoitida esa UUA lari tog' va cho'l hududlarida, uzoq masofadagi obyektlarda, favqulodda vaziyatlar sharoitida hamda texnik ta'minot samaradorligini oshirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

UUA asosida texnik razvedka olib borish tizimining mazmun mohiyati:

Texnik razvedka bu- texnika va infratuzilma obyektlarining texnik holatini, joylashuvini, ishga yaroqliligini, nosozlik darajasi to'g'risida tezkor va ishonchli ma'lumot yig'ish jarayonidir.

UUA yordamida texnik razvedka bosqichlarini rejalashtirish, hudud, obyekt

va maqsadlarni aniqlash, UUA parvoz yo'nalishini belgilash, GPS va GIS ma'lumotlari asosida amalga oshirish, qurol-aslaha va harbiy texnikalar bo'yicha kerakli bo'lgan ma'lumotlarni yig'ish, foto, video, termal va sensor ma'lumotlarni uzatish va qayta ishlash, texnik xulosa chiqarish, ta'mirlash yoki ta'minot choralarni belgilash, moddiy vositalar bilan uzluksiz ta'minlashdan iborat.

UUA yordamida yig'ilgan razvedka ma'lumotlari asosida ehtiyot qismlar, yoqilg'i-moylash materiallari va texnik jihozlar ehtiyoji belgilanadi.

Integratsiya qilingan tizimning afzalliklari:

- texnik razvedkaning aniqligi va tezligi oshadi;
- moddiy vositalar yetishmovchiligining oldi olinadi;
- inson resurslariga yuklama kamayadi;
- favqulodda holatlarga tezkor javob beriladi;
- texnik ta'minot tizimi raqamlashtiriladi.

Xulosa o'rnida O'zbekistonda texnik ta'minot bo'linmalari tarkibiga zamonaviy uchuvchisiz uchish apparatlarini integratsiya qilish texnik razvedka va moddiy vositalar bilan uzluksiz ta'minlash jarayonlarini yangi bosqichga olib chiqadi.

UUA asosida ishlab chiqilgan algoritmlar texnik ta'minotning barqarorligi, samaradorligi va ishonchliligini ta'minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Боевое применение вооружения и военной техники в



горно-пустынной местности Афганистана. – М: Военное издательство.

2. Военный совет: Подготовка военных летчиков. Развитие авиационной науки//радиостанция «Эхо Москвы» Опубликовано: 12.11.2012 г.

3. Кондратов А.К. Перспективы развития и применения беспилотных и роботизированных средств вооруженной борьбы в ВС ведущих зарубежных стран. // Ж. Зарубежное военное обозрение. 2011.

